

“Tasdiqlangan”
“Kvarts” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining 2026 yil
27-fevraldagi Umumiy yig‘ilishi qarori bilan
(2026 yil 27-fevraldagi 1-sonli bayonnoma)

**“Kvarts” aksiyadorlik jamiyati
ijroiya organi to‘g‘risidagi
Nizom
(yangi tahrir)**

Quvasoy shahri - 2026 y.

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar
2. Boshqaruv va boshqaruv raisining vakolat doirasi
3. Boshqaruvni tashkil etish tartibi
4. Boshqaruvning ish tartibi
5. Boshqaruv a'zolarining huquq va majburiyatlari
6. Boshqaruv a'zolarining fidutsiar majburiyatlari
7. Boshqaruv a'zolarining javobgarligi
8. Boshqaruv a'zolariga haq to'lash
9. Axborotni oshkor etish
10. Yakuniy qoidalar

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati ijroiya organi to‘g‘risidagi Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-760-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021 yil 29-martdagi 166-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat aktivlarini boshqarish agenligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023 yil 24-martdagi PQ-101-son qarori, Korporativ boshqaruv kodeksi (aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrda 9-sonli Majlis bayoni bilan tasdiqlangan) tavsiyalari va “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - jamiyat) Ustavi asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Ushbu Nizom jamiyat Boshqaruvining maqomini, Boshqaruv ishini, uning a‘zolarini tayinlash tartibini, shuningdek har bir a‘zoning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

1.3. Boshqaruv jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladi va jamiyatning Boshqaruv organi hisoblanadi.

1.4. Boshqaruv jamiyat Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga hisobdordir.

1.5. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo‘yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, agar jamiyat ustavida o‘zgacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

2. BOSHQARUV VA BOSHQARUV RAISING VAKOLAT DOIRASI

2.1. Boshqaruvning vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki jamiyat Kuzatuv Kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

2.2. Boshqaruv aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining va jamiyat Kuzatuv Kengashining qarorlari bajarilishini ta‘minlaydi.

2.3. Boshqaruv vakolatiga quyidagilar kiradi:

Jamiyat tuzilmalari rahbarlarini tayinlash;

ishchi va xodimlarga ish haqi va mukofotlar miqdorini belgilash;

xodimlar mansab yuriqnomalarini tasdiqlash;

Jamiyat tuzilmalari rahbarlari hisobotlarini har chorak yakuni bo‘yicha eshitish;

Jamiyat ijroiya organining daromadlari va xarajatlari smetasini tasdiqlash;

tasdiqlangan smeta doirasida ijroiya organi xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni amalga oshirish;

jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitimlar bo‘yicha qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanadan oldingi hisobot sanasiga tuzilgan moliyaviy hisobot bo‘yicha jamiyat sof aktivlari

mikdorining 15 foizigacha tashkil etsa, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;

jamiyatning balans qiymati qaror qabul qilinayotgan sanadan oldingi hisobot sanasiga tuzilgan moliyaviy hisobot bo'yicha jamiyat sof aktivlari mikdorining 15 foizigacha tashkil etadigan asosiy vositalarini hisobdan chiqarish;

Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqiladigan masalalarni ko'rib chiqish;

Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish;

Jamiyatning affillangan shaxslar bilan tuzishi ko'zda tutilayotgan bitimlarni o'rganish;

Jamiyat aksiyadorlarining arz va e'tirozlarini ko'rib chiqish;

Jamiyatga sud da'volari taqdim qilinishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;

Jamiyatning yillik biznes-rejalari loyihalarini ishlab chiqish;

Jamiyatning istiqbol rivojlanishining asosiy yo'nalishlari loyihasini ishlab chiqish;

Jamiyat faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

marketing tadqiqotlarni o'tkazish;

Jamiyat kundalik faoliyatining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarini ko'rib chiqish.

2.4. Boshqaruv jamiyat faoliyatining barcha masalalarini mustaqil ravishda hal qiladi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiyat Kuzatuv Kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

2.5. Boshqaruv raisining vakolatiga quyidagilar kiradi:

Boshqaruv raisi vakolatiga jamiyatning joriy faoliyati rahbarligining barcha masalalari kiradi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolatiga kirgan masalalar bundan mustasno.

Boshqaruv raisi jamiyat Ustavida, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlarida, Kuzatuv kengashi qarorlarida, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida va Qonunchilik bilan belgilangan vakolatlari doirasida ish tutadi.

Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;

Kuzatuv Kengashining roziligiga ko'ra uning ishida ishtirok etish;

Xodimlar shartlarini tasdiqlash, xodimlarni (ishchilarni) ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;

Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;

Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bulgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

o'z vakolatlari doirasida jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

Jamiyatda buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish, shu jumladan e'lon qilish maqsadida moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga shakllantirishni ta'minlash;

qonun xujjatlariga muvofiq jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlarni oshkor qilish;

yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida takdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar takdim etilishini ta'minlash;

Jamiyat arxivi ishini tashkil etish va undagi hujjatlar butligini ta'minlash;

amaldagi qonun hujjatlariga hamda jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;

Jamiyat Kuzatuv Kengashiga ko'rib chiqish uchun jamiyat faoliyatiga doir masalalar yuzasidan ichki me'yoriy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda kiritadi;

Aksiyadorlarning amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan axborot olish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish, dividendlar to'lovi bo'yicha barcha huquqlariga amal qilinishini ta'minlaydi;

Jamiyat mol-mulki va pul mablag'larini qonun hujjatlarida va jamiyat ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tasarruf qiladi;

Jamiyat nomidan shartnomalar, kontraktlar va boshqa bitimlar tuzadi;

O'zbekiston Respublikasi banklarida hisob raqami va boshqa hisoblarni ochadi;

davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

rais o'rinbosarlari (direktorlar) va boshqaruv a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, jamiyat faoliyatiga oid masalalarni hal qilishda ularning vakolatlarini belgilaydi;

Jamiyatning, sho'ba va tobe jamiyatlari, filiallari yoki vakolatxonalari rahbarini tayinlaydi;

Jamiyat boshqarmalari, bo'limlar va boshqa tarkibiy bo'linmalar nizomlarini tasdiqlaydi;

xodimlarni mukofotlash to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi, lavozim ish haqlari, ularga ustamalarni, turli qo'shimcha to'lovlarni belgilaydi, jamiyat xodimlarini rag'batlantiradi, shuningdek, jamiyat xodimlarini ijtimoiy himoyalash maqsadida kompensasiya to'lovlarini o'rnatadi;

jamiyatda ichki nazorat va xatarlarni boshqarish bo'yicha, shuningdek korrupsiyaga qarshi va monopoliyaga qarshi kompalaens nazorati tizimini o'z ichiga olgan bo'yicha oqilona va samarali tizimni tashkil qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha choralar ko'radi, shuningdek ularni sodir etish uchun qulay bo'lgan sabablar va sharoitlarni aniqlash, tahlil va bartaraf qilish choralari ko'radi;

jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi siyosat va jamiyatning korporativ axloq kodeksi talablariga rioya etishini ta'minlaydi;

monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga muvofiq huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko'radi;

jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan jamiyatning monopoliyaga qarshi siyosati talablarini bajarishini ta'minlaydi;

jamiyat, boshqaruv va nazorat organlari a'zolari, mansabdor shaxslar va xodimlar, mijozlar, kreditorlar, sheriklar va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha choralar ko'radi;

Boshqaruv raisi jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, jamiyat Ustavi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv Kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

2.6. Boshqaruv raisi har chorakda jamiyat Kuzatuv kengashi oldida jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan hisobot beradi.

2.7. Boshqaruv raisi Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida moliya yili yakunlariga ko'ra jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida hisobot beradi.

2.8. Boshqaruv jamiyatning investisiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun ustav fondlarida jamiyatning ulushi mavjud korxonalarining boshqaruv organlarida jamiyat nomidan "ustav fondlarida aksiyadorlik jamiyati ulushga ega korxonalarining boshqaruv organlarida uning vakillarining AJ nomidan ovoz berish tartibi"ga muvofiq ovoz berishni amalga oshiradi.

3. BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH TARTIBI

3.1. Jamiyat boshqaruvi jamiyat Ustaviga asosan 5 kishidan tarkib topadi.

3.2. Boshqaruvning son tarkibi boshqaruv vazifalari bir xodim tomonidan imkoni boricha ko'p bajarilishi, boshqaruv devonini qisqartirish, jamiyatni boshqarishda bir-birini takrorlovchi bo'g'inlarning tugatilishi va u bilan bog'liq boshqaruv xarajatlarining qisqarishi tamoyillaridan kelib chiqib belgilanadi.

3.3. Boshqaruv raisi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan va a'zolari esa Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi (tayinlanadi). Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomasini jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi. Jamiyat boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari (direktorlar) tanlov asosida tayinlanadi (saylanadi).

3.5. Boshqaruv tarkibiga:

Boshqaruv raisi;

Boshqaruv raisi o'rinbosarlari (direktorlar) kiritiladi;

Boshqaruv tarkibiga boshqaruv raisining tavsiyasi bilan jamiyat faoliyatining muhim yo'nalishlarini ta'minlovchi tarkibiy tuzilma rahbari ham kiritilishi mumkin.

3.6. Aksiyadorlarning vakili sifatida qatnashayotgan ijroiya organi a'zolari ijroiya organi a'zolarini saylash masalasi bo'yicha ovoz berish huquqiga ega emas.

3.7. Boshqaruv raisi jamiyat faoliyatidagi o'zgarishlar va ishlab chiqarish ehtiyoji munosabati bilan jamiyat boshqaruvi tarkibiga qo'shimcha nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega.

3.8. Jamiyat boshqaruv a'ziligiga nomzodlar boshqaruv raisi tavsiyasiga ko'ra Kuzatuv kengashi majlisiga hal qilishi uchun olib chiqiladi.

Jamiyat boshqaruvi a'ziligiga nomzod jamiyatga o'zining jinoiy javobgarlikka tortilganligi faktlari to'g'risida ma'lum qilishi shart.

3.9. Jamiyat boshqaruvi a'ziligiga nomzodlar o'zlarining nomzodlari ko'rib chiqilayotganda, Kuzatuv kengashi majlisida ishtirok etishlari mumkin.

3.10. Jamiyat boshqaruvi a'ziligiga nomzodlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish Kuzatuv kengashi tomonidan shaxsiy tartibda amalga oshiriladi.

3.11. Boshqaruv raisini saylash:

Jamiyat boshqaruvi raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan **3 (uch) yil** muddatga saylanadi (tayinlanadi). Bunda, boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq boshqaruvi raisi bo'lishi mumkin emas.

Boshqaruv raisini saylash tartibi jamiyat Ustavida belgilanadi. Boshqaruvi raisini saylash qoida tariqasida, xorijiy menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida amalga oshiriladi.

Boshqaruv raisi lavozimiga tanlov o'tkazish tartibi, nomzodga qo'yiladigan talablar jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Boshqaruv raisini saylash (tayinlash) to'g'risidagi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori yig'ilishda qatnashayotgan jamiyatning ovoz beruvchi aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Boshqaruv raisi lavozimiga nomzodlar o'zlarining nomzodlari ko'rib chiqilayotganda aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashishlari mumkin.

Boshqaruv raisi lavozimiga nomzod saylangandan (tayinlangandan) keyin Kuzatuv kengashi u bilan 3 (uch) yil muddatga shartnoma tuzadi, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish to'g'risida har yili qaror qabul qilinishi mumkin.

Shartnoma jamiyat nomidan Kuzatuv Kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Boshqaruv raisi bilan tuziladigan shartnomada uning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyat Kuzatuv kengashi, agar jamiyat ustaviga muvofiq unga bunday huquq berilgan bo'lsa, boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomani, agar u ushbu shartnoma shartlarini, jamiyat ustavini qo'pol ravishda buzsa yoki uning harakati (harakatsizligi) bilan jamiyatga zarar etkazsa, u bilan tuzilgan shartnomani muddatidan avval bekor qilish huquqiga ega.

Jamiyat tomonidan soliqlar va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga boshqa to'lovlar, davlat maqsadli fondlari, ish haqi va dividendlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik hosil bo'lganda, shuningdek, ketma-ket ikki chorak mobaynida biznes-rejaning asosiy parametrlari bajarilmagan taqdirda, boshqaruv raisi bilan mehnat munosabatlarini davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masala jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish yoki muddatidan avval bekor qilish to'g'risidagi qarori yig'ilishda qatnashayotgan jamiyatning ovoz beruvchi aksiyadorlarning - aksiyalar egalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Kuzatuv Kengashining boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomani muddatidan avval bekor qilish to'g'risidagi qarori majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan boshqaruv raisining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, uning vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi masala o'sha yig'ilishning o'zida hal etilishi yoxud jamiyat ijroiya organining rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin.

3.12. Boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash) to'g'risidagi qaror qabul qilingandan keyin boshqaruv raisi har bir boshqaruv a'zosi bilan yollash to'g'risida mehnat shartnomasi tuzadi.

3.13. Boshqaruv a'zolari bilan shartnoma uch yil muddatga tuziladi, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi.

Shartnoma jamiyat nomidan Kuzatuv Kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Jamiyat boshqaruvi a'zolari bilan tuziladigan shartnomada uning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda

jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi zarur.

3.14. Boshqaruv a'zolari lavozim majburiyatlarida belgilab berilgan vakolatlar, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, jamiyat Kuzatuv Kengashining qarorlari, boshqaruv qarorlari va boshqaruv raisining buyruqlari va farmoyishlari doirasida ish tutadi.

3.15. Jamiyat Kuzatuv kengashi boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar ular jamiyat Ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, yoki jamiyatning yillik biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlari bajarilmasa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

3.16. Jamiyat Kuzatuv kengashi jamiyat boshqaruvi raisi va boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda muddatidan ilgari tugatishga haqli.

3.17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan jamiyat boshqaruvi raisi yoki boshqaruv a'zosining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, jamiyat boshqaruvi raisi yoki boshqaruv a'zosining vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi masala o'sha yig'ilishning o'zida hal etilishi yoxud jamiyat boshqaruvi raisi yoki boshqaruv a'zosi vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda, aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin.

3.18. Jamiyat boshqaruvi raisi yoki boshqaruv a'zosining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan jamiyat Kuzatuv kengashi jamiyat boshqaruvi raisi yoki boshqaruv a'zosi vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek jamiyat boshqaruvi raisini saylash (tayinlash) to'g'risidagi masalani hal etish uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqiradi.

4. BOSHQARUVNING ISH TARTIBI

4.1. Jamiyat Boshqaruvi majlislarini o'tkazishni Boshqaruv raisi tashkil etadi, u jamiyat nomidan barcha hujjatlarni hamda jamiyat boshqaruvi Majlisi bayonnomalarini imzolaydi, jamiyat boshqaruvi o'z vakolat doirasida qabul qilgan qarorlarga muvofiq jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi.

4.2. Boshqaruv majlislari zarur hollarda, biroq bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

Boshqaruv majlisini o'tkazish uchun kvorum jamiyat boshqaruviga saylangan a'zolar sonining kamida oltmish foizini tashkil etadi.

4.3. Boshqaruv tomonidan Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritiladigan masalalar majburiy tartibda boshqaruv majlisida oldindan muhokama etiladi.

4.4. Jamiyat boshqaruvining fikr-mulohazalari haqida Kuzatuv kengashida va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida boshqaruv raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan boshqaruv a'zosi axborot beradi va himoya qiladi.

4.5. Boshqaruv majlisini Boshqaruv raisi yoxud ko'rib chiqilayotgan masalalar tegishliligi bo'yicha uning o'rinbosarlaridan biri olib boradi.

4.6. Boshqaruv majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

4.7. Boshqaruv majlisida bayonnoma yuritiladi, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

Majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda hozir bo'lgan Boshqaruv a'zolari ro'yxati;

Majlisning kun tartibi;
ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari (majlisda ishtirok etgan har bir boshqaruv a'zosining ovoz berish natijasini ko'rsatgan holda);
qabul qilingan qarorlar.

4.8. Boshqaruv majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalar:

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga ularning talabiga ko'ra;

boshqa mansabdor shaxslar va auditorlik tashkilotiga, ularning so'rovlari bo'yicha faqat Boshqaruv raisining ruxsati bilan;

amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarga va organlarga (shu jumladan davlat organlariga) beriladi.

4.9. Boshqaruv majlislarining bayonnomalari 2 (ikki) nusxada tuziladi va majlisda hozir bo'lgan barcha boshqaruv a'zolari tomonidan imzolanadi.

4.10. Boshqaruv majlislarining bayonnomalari jamiyatda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda saqlanadi.

5. BOSHQARUV A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Boshqaruv raisi quyidagi huquqlarga ega:

jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, davlat muassasalarida, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha tashkilot va korxonalarda jamiyat manfaatlarini ifodalash;

mol-mulk va pul mablag'larini Ustavda yoki jamiyatning boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tasarruf qilish;

shartnoma va kontraktlar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzish;

ishonchnomalar berish;

banklarda hisob raqami va boshqa hisoblarni ochish;

qo'l ostidagi barcha xodimlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va ko'rsatmalar chiqarish;

xodimlar shtatini tasdiqlash, ularning kadrlar bilan to'ldirilishini ta'minlash;

notarial idorada ta'sis shartnomasi va jamiyat Ustaviga imzo qo'yish;

haq olish;

- jamiyatning bank va boshqa moliyaviy hujjatlariga birinchi imzolash huquqi bilan banklarda hisob-kitob, valyuta va boshqa hisobvaraqlar ochish;

- jamiyatning mijozlari, shuningdek, boshqa tashkilot va korxonalar bilan bitimlar va shartnomalar tuzish;

- jamiyat nomidan hujjatlarni imzolash;

- o'z vakolatlari doirasida jamiyatning mol-mulki va mablag'larini tasarruf etish;

- xodimlarning shtat jadvalini belgilash va tasdiqlash;

- xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash, mehnat va ijro intizomiga rioya etilishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga va me'yoriy hujjatlariga muvofiq jamiyat xodimlariga ish haqini (barcha turdagi ustamalar va mehnati bilan ishtirok etish koeffitsientlari) belgilash;

- jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni va jamiyat xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlash;
- jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;
- jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalarining boshqaruv organlarida uning vakillarini jamiyat nomidan ovoz berish bo‘yicha ko‘rsatma berish;
- jamiyat xo‘jalik tavakkalchiligini va Boshqaruv raisining javobgarligini sug‘urtalashni amalga oshirish;
- jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar, farmoyishlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish;
- jamiyatning ichki me‘yoriy hujjatlarini tasdiqlash, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv Kengashining vakolatiga kiruvchi ichki me‘yoriy hujjatlar bundan mustasno;
- qonunchilikda, jamiyat ustavida va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa huquqlarlarni amalga oshirish;

Boshqaruv raisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi mumkin.

5.2. Boshqaruv raisining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda, jamiyat manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritish;
- Kuzatuv kengashini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi to‘g‘risida xabardor qilish;
- Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarida ishtirok etish;
- o‘z vazifalarini professional asosda amalga oshirish, qonun hujjatlari, jamiyat ustavi va boshqaruv qarorlaridan kelib chiquvchi barcha majburiyatlarni vijdonan va oqilona bajarish;
- o‘quv kurslari, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish orqali malakasini oshirish;
- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning saqlanishini ta‘minlash;
- Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat munosabatlari bilan bog‘liq masalalarning hal etilishini ta‘minlash;
- Jamiyat faoliyatida qonun hujjatlari, jamiyat Ustavi, ushbu Nizom va jamiyatning boshqa ichki hujjatlari talablariga rioya etish.
- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosatiga rioya etish;
- Jamiyatning monopoliyaga qarshi siyosatiga rioya etish;
- Jamiyatda qabul qilingan, ijro etuvchi organ a‘zolarining jamiyat nazorati organlari, Kuzatuv kengashi, jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishini, korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurashni nazarda tutuvchi korporativ axloq kodeksiga rioya etish;
- o‘z vakolatlari doirasida jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta‘minlash;
- o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab ish tutish;
- davlat muassasalarida, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, barcha tashkilot va korxonalarda jamiyat manfaatlarini ifodalash;
- davlat va jamiyat uchun muhim bo‘lgan axborot va masalalarni o‘z rasmiy ijtimoiy sahifalarida oshkor qilish;
- jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;

jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish, uni ishonchligiligini ta'minlash, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida belgilangan tartibda taqdim etish;

har chorakda yillik biznes-rejaning bajarilishi, jamiyat tomonidan amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi hisoboti to'g'risida Kuzatuv Kengashiga hisobot berish;

jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar jamiyatning Kuzatuv kengashi, jamiyat auditori talabiga ko'ra to'siqlarsiz belgilangan tartibda taqdim etish;

jamiyat xodimlari tomonidan xizmat yoki tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlanishini ta'minlash, shuningdek tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxatini Kuzatuv kengashi tomonidan belgilashni tashkillashtirish;

jamiyatni ixtisoslashgan xodimlar bilan ta'minlash, shuningdek xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshisini foydalanish chora-tadbirlarini ko'rish;

o'zining hamda jamiyat mansabdor shaxslarining o'quv kurslari, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish orqali malakasini oshirishni ta'minlash;

mehnat va ichki tartib intizomiga rioya qilinishini ta'minlash;

ijtimoiy kafolatlarga rioya qilinishini va jamiyat xodimlarining mehnatini muhofaza qilinishini ta'minlash;

jamoalarida ijroiya organi vakillarining ishtirokini ta'minlash, jamoalar shartnomalari va bitimlar tuzilishida ish beruvchi sifatida qatnashish, jamoalar shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish;

o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga va jamiyatning Kuzatuv Kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;

agar, jamiyat tomonidan bitim tuzilishida u affilangan shaxs hisoblangan taqdirda, Kuzatuv kengashini xabardor qilish;

jamiyat asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanishni faqat Kuzatuv Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda amalga oshirish;

jamiyat mulkini begonalashtirishni, uni sotish shakli va mexanizmini, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan Kuzatuv kengashi bilan kelishish;

jamiyatga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritish yoki ularning xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etishi, yagona ta'sischi bo'lgan korxonalarni qayta tashkil etish bo'yicha kelishuvlarni hamda yirik ko'chmas mulk ob'ektlarini sotish masalalarini Davlat agentligi bilan kelishgan holda amalga oshirish;

ichki hujjatlarga, amaldagi qonun hujjatlariga va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish;

Boshqaruv raisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

5.3. Boshqaruv raisi jamiyat Kuzatuv Kengashining roziligisiz boshqa yuridik shaxslarning boshqaruv va nazorat organlarida ishtirok etishga haqli emas.

5.4. Boshqaruv raisining aniq huquqlari va majburiyatlari u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida kelishib olinadi.

5.5. Boshqaruv a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun jamiyat faoliyatiga taalluqli hujjatlardan foydalanish imkoniga ega bo'lish;

Jamiyat faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

Jamiyat faoliyatining ustivor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha takliflar kiritish;

Jamiyat Ustaviga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish va jamiyatning ichki hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritish;

haq olish;

Boshqaruv a'zolari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

5.6. Boshqaruv a'zolari majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda, jamiyat manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritish;

Kuzatuv kengashini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi to'g'risida xabardor qilish;

Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarida ishtirok etish;

o'z vazifalarini professional asosda amalga oshirish, qonun hujjatlari, Jamiyat ustavi va Boshqaruv qarorlaridan kelib chiquvchi barcha majburiyatlarni vijdonan va oqilona bajarish;

o'quv kurslari, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish orqali malakasini oshirish;

o'z majburiyatlarini ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq tegishli tarzda bajarish;

har oyda boshqaruv yig'ilishlarida o'zlariga yuklatilgan topshiriqlar holati bo'yicha axborotlar tayyorlash;

Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;

Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning saqlanishini ta'minlash;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosatiga rioya etish;

Jamiyatning monopoliyaga qarshi siyosatiga rioya etish;

Jamiyatda qabul qilingan, jamiyat nazorati organlari: Kuzatuv kengashi, ijroiya organi, jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari bilan to'g'ri munosabatda bo'lishini, korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashni nazarda tutuvchi korporativ axloq kodeksiga rioya etish.

Boshqaruv a'zolari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

5.7. Boshqaruv a'zolarining aniq huquqlari va majburiyatlari ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasida kelishib olinadi.

5.8. Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari jamiyatning affillangan shaxslari hisoblanadi.

Boshqaruv a'zosi affillangan shaxs hisoblangan taqdirda, u jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda, yozma bildirish yuborish orqali jamiyatni xabardor etishi shart.

5.9. Boshqaruv a'zolari shaxsiy manfaatlari uchun boshqaruvning u yoki bu qarorlarni qabul qilishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatish huquqiga ega emas.

5.10. Boshqaruv a'zolari jamiyatning imkoniyatlari (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, jamiyatning faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborot)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emas.

6. BOSHQARUV A'ZOLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI

6.1. Boshqaruv a'zolarining fidutsiar majburiyatlari:

vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanish;

jamiyat mol-mulkidan jamiyatning ustaviga va ichki hujjatlariga zid ravishda va (yoki) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va (yoki) kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslikni hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik;

jamiyatning biznes imkoniyatlaridan yoki jamiyat uchun manfaatli bo'lgan obyektlardan o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki o'z mavqeyidan kelib chiqqan holda, jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, shunday naf olishga ko'maklashish maqsadida foydalanmaslik;

jamiyatning asosiy faoliyati yo'nalishlariga xos bo'lgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz amalga oshirmaslik;

qonunchilikka, jamiyatning ichki hujjatlariga va shartnomaga muvofiq jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslikni;

o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslik.

Boshqaruv a'zolari fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Qonunchilikda, jamiyat ustavida va ichki hujjatlarida Boshqaruv a'zolarining boshqa fidutsiar majburiyatlari belgilanishi mumkin.

7. BOSHQARUV A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

7.1. Boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda jamiyat va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari zarur.

7.2. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

7.3. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

7.4. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyat Boshqaruv raisi yoki Boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

7.5. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari jamiyat tomonidan tuzilayotgan bitimlarda affillangan ekanliklari to'g'risidagi axborotni sir tutganliklari uchun javobgar bo'ladi.

7.6. Boshqaruv a'zolari ularga xizmat mavqei bilan berilgan huquqlardan o'zlari mehnat yoki qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning maqsadlari va manfaatlari yo'lida foydalanmasliklari zarur.

7.7. Boshqaruv a'zolari jamiyat mol-mulkini tasarruf qilishdan shaxsiy foyda ko'rish bo'yicha harakatlarga yo'l qo'ymasligi zarur.

7.8. Boshqaruv a'zolari o'z vazifasini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi, natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va jamiyat Ustaviga muvofiq jamiyatga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha to'liq hajmida jamiyat oldida javob beradi.

8. BOSHQARUV A'ZOLARIGA HAQ TO'LASH

7.1. Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun to'lanadigan haq miqdori Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

7.2. Boshqaruv raisi va a'zolariga to'lanadigan haq miqdori jamiyat faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini bajarilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilanadi. Bunda, mehnatga haq to'lashning yagona rag'batlantirish siyosati asosida oylik ish haqi va yil yakunlari bo'yicha bir yo'la to'lanadigan mukofot to'lovlari miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organiga axborotlar va ma'lumotlar taqdim etilmaganda yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganda ijroiya organi rahbarlari rag'batlantirilmaydi.

7.3. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolariga rag'batlantirish to'lovlari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kvarts" aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv va nazorat organlari, mehnat jamoasi a'zolarini rag'batlantirish" Tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

9. AXBOROTNI OSHKOR ETISH

9.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyat boshqaruvi a'zolarining haq va kompensasiyalari miqdori oshkor qilinadi.

9.2. Jamiyatning korporativ saytida ijroiya organining faoliyati to'g'risidagi axborot joylashtiriladi, shu jumladan:

Jamiyat boshqaruvining tarkibi;

Jamiyat boshqaruvining vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar, jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi masalalar va boshqa maxfiy axborotlar bundan mustasno;

Boshqaruvning jamiyat Kuzatuv Kengashiga hisobotlari;

Jamiyat boshqaruvining faoliyatini baholash to'g'risidagi axborot;

Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyati yuzasidan ularning tasdiqlangan biznes-rejasiga muvofiq, boshqaruv tomonidan bajarilgan ishlar va erishilgan ko'rsatkichlar to'g'risida hisobot;

qonun hujjatlari talablariga muvofiq boshqa axborotlar.

10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Ushbu Nizom Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

10.2. Ushbu Nizomga amaldagi qonun hujjatlari o'zgartirilganligi va jamiyat Ustaviga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.3. Ushbu Nizomga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

"Kvarts" AJ
Boshqaruv raisi v.v.b.



A.B. Xusanov

